

## ACMEOLOGICAL CRITERIA IN THE FORMATION OF AFFECTIVE SPEECH

*Nodira Abdukarimova*

*Master student, National University of Uzbekistan*

**Abstract:** *Several factors play an important role in creating an effective speech, among them the speech expressed through acmeological criteria will be more effective and clear. Because acmeological approaches give high results in the development of speaking skills if: the level of study of the problem of acmeological development methods is analyzed; if the pedagogical and psychological aspects of professional training of future specialists are studied; if the pedagogical conditions ensuring the effectiveness of acmeological development are determined; if a model of professional adaptation is developed and put into practice based on a systematic approach.*

**Keywords:** *Affect, innovation, innovative activity, acmeology, intellectual ability, professionalism, creative individuality, pedagogical observation, professional education modeling, personality; self-awareness.*

## AFFEKTIV NUTQ SHAKLLANTIRISHDA AKMEOLOGIK MEZONLAR

*Nodira Abdukarimova*

*O'zMU, xorijiy filologiya fakulteti magistranti*

**Annotatsiya:** *Affektiv nutqni yaratish uchun bir qator omillar muhim rol o'ynaydi, shular jumlasidan akmeologik mezonlar orqali ifodalangan nutq bir muncha ta'sirli va aniq bo'ladi. Chunki akmeologik yondashuvlar nutqiy mahoratini rivojlantirishda yuqori natija beradi agarda: akmeologik rivojlanish usullari muammosining o'rganilganlik darajasi tahlil etilsa; bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari o'rganilsa; akmeologik rivojlanishi samaradorligini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlar aniqlansa; tizimli yondashuv asosida kasbiy moslashtirish modeli ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq etilsa.*

**Kalit so'zlar:** *Affekt, innovatsiya, innovatsion faoliyat, akmeologiya, intellektual qobiliyat, professionalizm, ijodiy individuallik, pedagogik kuzatish, kasbiy ta'lim modellashtirish, shaxs; o'z-o'zini anglash.*

Axborot almashish texnologiyalari tobora ko'proq rivojlanganligi sababli ta'lim jarayonida ham kompyuterlarning ulushi ortib bormoqda. Ayni shu paytda

savol tug'iladi: inson va mashinaning o'zaro ta'siriga asoslangan individual ta'lim vositalarini qanday ishlab chiqish kerak?

"Affektiv" atamasi ostida inson va kompyuter o'rtasidagi o'zaro ta'sirni hissiyotlar yordamida ta'minlaydigan texnologiyalarni tushuniladi. Insonning har qanday ichki yoki tashqi muhit bilan shaxsiy munosabati voqealarini hissiyotlar aks ettiradi. Odamlar his-tuyg'ularini yuz ifodalari, tana harakatlar - imo-ishoralar, ovoz intonatsiyasi va boshqa fiziologik ko'rinishlar (puls, terlash va boshqalar) orqali namoyon qiladilar. Shuning uchun o'rganish jarayoni nafaqat insonning qobiliyatiga, balki uning qobiliyatiga bog'liq hissiyotlar, umidlar, ijtimoiy-madaniy munosabatlar va ehtiyojlarni ham o'z ichiga oladi.

Mavzu bo'yicha bir qator innovatsion tadqiqotlar ta'lim jarayonida affektiv hisoblashni qo'llashni maqullagan, masalan yuzdagi qon oqimi haqidagi ma'lumotlarni o'lchash va insonning his-tuyg'ularini aniqlashda kameraning kuchidan foydalanish, elektr faolligini maxsus sinovlar, miyaga taqiladigan affektiv qurilmalar va hissiy intellekt tizimlari shular jumlasidandir. Kompyuter bilan hissiy o'zaro ta'sir qilmasdan ham o'quvchiga ko'nikma berish mumkin, lekin unda o'quvchi tez charchaydi, materialga qiziqish yo'qoladi, ba'zan o'zini yomon his qila boshlaydi. Massachusetts texnologiya instituti olimlarining so'nggi tadqiqotlaridan biri Logy (AQSh) Kort, Reilly va Picard hissiyotlar va o'rganish o'rtasidagi munosabatlar sohasida ish olib bordi. Unga ko'ra olimlar hissiy holatlar to'plamiga ega bo'lgan to'rt kvadrantli o'rganish spiral modelini taklif qiladi, bu model o'quvchi harakat qilganda o'zgarib turadigan kvadrantlar orqali spiral shaklida ko'tariladi:

- 1) hayrat, qoniqish, qiziquvchanlik;
- 2) umidsizlik, chalkashlik, chalkashlik;
- 3) umidsizlik, noto'g'ri tushuncha, inkor;
- 4) optimizm, yangi kashfiyotlar.

Ushbu model his-tuyg'ularni nutq, yuz ifodasi, imo-ishoralar, tananing holati, psixofiziologik parametrlarni o'lchash, shuningdek smartfonlar yoki maxsus qurilmalardan foydalanishga qarab talabaning hissiy holatidagi tizimni avtomatik ravishda tanlaydi.

Kishi nutqini rivojlantirishda akmeologik mezonlarga rioya qilsa nutq yanada ta'sirli va aniq bo'ladi. Sababi bu mezonlarda jodiy individuallik professionallikning eng yuqori xususiyati sifatida namoyon bo'ladi.

"Akmeologiya" tushunchasi ("akme" - qadimgi yunon tilidan tarjima qilingan - eng yuqori nuqta, gullash, yetuklik, eng yaxshi vaqt)ni ilmiy atamashunoslikka 1928 yilda N.A.Ribnikov kiritdi, bu yosh davrlari psixologiyasining yetuklik davrini nazarda tutadi. Akmeologiyaning predmeti kasbiy yuksalish, mutaxassislarning ijodiy uzoq umr ko'rishiga, shuningdek, kelajakdagi mutaxassislarning kasbiy mahoratini oshirishga, ularning faoliyatini takomillashtirish va tuzatishga yordam beradigan sub'ektiv va ob'ektiv omillardir. Akmeologiyaning ushbu tushunchalari innovatsion pedagogikaning asosiy negizini tashkil etadi. U o'z ichiga olgan shaxsiy kategoriyalar:

- intellektual va ijodiy tashabbus;
- intellektual qobiliyat, bilimlarning kengligi va chuqurligi;
- qarama-qarshiliklarga tayyorlik, ijodiy ikkilanishlarga moyillik, ichki yaratuvchilik kurashni o`zida sinash qobiliyati;
- axborotlarga tashnalik, professionalizm, bilimga chanqoqlik

Shu tariqa kishining ijodiy individualligini shakllantirish shaxs rivojlanishi va yangilanishining dinamik innovatsion jarayoni sifatida tushuniladi.

Akmeologiyaning eng muhim jihati — yuksak kasb-korlikning ijodiy pog'onaga ko'tarilishidagi turti jihatlarini o'rganuvchi inson muammolari bilan shug'ullanuvchi insonshunoslikdan ajrab chiqqan muhim zamonaviy tarmoq bo'lib, insonning kasb-hunarni bilim va tafakkur orqali chuqur egallashi, uning jamiyat

rivoji, millat ravnaqi, turmush farovonligi hamda ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-huquqiy jihatlariga ijobiy ta'sirini kuchaytirishga xizmat Akmeologik yondashuv yordamida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini takomilashtirishni turli qirralarini hisobga olgan holda, malakali mutaxassislarning ijodiy qobiliyatlarini ochish va rivojlantirish muammolari oldingi o'ringa chiqib bormoqda.

Darhaqiqat, Abdulla Avloniy o'qituvchining shaxsiy va kasbiy fazilatlariga keng ta'rif berib: tarbiyachining shaxsiy fazilatlarini, ya'ni axloqli, odobli, bilimdonligi, ziyrakligi, topqirligi, farosatliligi, aql-zakovatliligi ta'lim- tarbiya jarayoni uchun asosiy negiz bo'lsa, ijodiy izlanish o'qish va o'qitishning yangi shakl, uslub hamda vositalarini qidirish o'qituvchining eng muhim kasbiy sifatlaridan ekanligini uqtiradi. Bu bilan Abdulla Avloniy o'qituvchi faoliyatiga nisabatan akmeologik yondashuvni o'z davri qiyofasida olg'a suradi. Bo'lajak o'qituvchilarni akmeologik rivojlanish jarayonini yana bir e'tiborli jihati bu yuqorida ta'kidlab o'tilgan yo'nalishlardagi kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga to'laqonli tatbiq etishning zaruriy shart- sharoitlari majmuasining belgilanishidir. Chunki, qulay va maqsadga yo'naltirilgan pedagogik sharoit jarayondan ko'zlangan natijaga erishishini engillashtiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Axmadov, N. R. (2022). Dezadaptatsiya va uning o'smir xulqida na'moyon bo'lishi. *Science and Education*, 3(3), 389-395.
2. Azimovna M. S., Shokhrukhovich U. F. Ways to expand network marketing and ecommerce in the wholesale of medicines //INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876. – 2022. – T. 16. – №. 06. – C. 113-116.

3. Kort, B. [and others] An Affective Model of Interplay Between Emotions and Learning: Reengineering Educational Pedagogy - Building a Learning Companion .
4. Shayxova X.A. Ma'naviyat — kamolot ko'zgusi. — T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2009. 115-b.
5. Tillayeva G. Akmeologiya asoslari: o'quv qo'llanma /. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — T.: «Tafakkur Bo'stoni», 2014. —192 b.
6. Ахмадов, Н. Р. (2021). Суицидальное поведение подростков. Вестник интегративной психологии.(журнал для психологов), 13-15.
7. Деркач А.А. Методолого-прикладные основы акмеологических исследований.-М.:1999
8. Слостенин В.А., Подымова Л.С. Педагогика: инновационная деятельность. М.: ИЧП "Издательство Магистр", 1997. – 224с